

TAQLID VA UNING YOSHGA XOS XUSUSIYATLARI

Kasimov Sardorbek Anvarjon o'g'li

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20163077>

Annotatsiya. Ushbu maqolada taqlid va uning oqibatları, yuzaga kelish sabablari hamda turli yosh davrlarida namoyon bo'lishi haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: xulq, agressiya, taqlid, ilk bolalaik, o'smirlik, ta'lim, tarbiya.

Аннотация. Эта статья предоставляет информацию о подражании, ее последствиях, причинах и проявлениях в разных возрастных категориях.

Ключевые слова: поведение, агрессия, имитация, раннее детство, подростковый возраст, образование, воспитание.

Abstract. This article provides information and its consequences, causes and manifestations at different ages

Keywords: behavior, aggression, imitation, early childhood, adolescence, education, upbringing.

Mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar haqida shunday fikr bildirgan edilar, "Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim-yoshlar.

Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodlarimiz, degan davat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" deya ta'kidlagan edilar. Bu borada prezidentimiz tomonidan taxsinga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda.

Lekin guruch kurmaksiz bo'lmaganidek, bugungi kun yoshlarimizning xulqida ijobiy o'zgarishlar bilan birga salbiy xulqga xos odatlar ham borligi ko'zga tashlanmoqda. Bu xulq namunalari yoshlarimizning yurish turishida, kiyinishida, atrofdagilar bilan muloqotida, oilasida yoki jamiyatdagi o'zini tutishida ko'rishimiz mumkin.

Bunday salbiy o'zgarishlarga ommaviy madaniyatga berilish, turli xildagi g'arb madaniyatiga xos bo'lgan kiyimlarni kiyish, yoshlarning ruhiyatidagi buzilishlar, ulardagi agressiyani kuchayishi natijasida jinoyatchilik va bezorilik holatlarining ko'payishi kabi vaziyatlarda ko'proq ko'zga tashlanmoqda.

Yoshlarimizning xulqidagi og'ishlar oqibatida oilalarda yuzaga kelayotgan kelishmovchiliklar va janjalli vaziyatlarning soni bugungi kunda ortib borayotganligi achinarli.

Bu kabi muamoli vaziyatlarni yuzaga kelishiga sabab insonlardagi xarakter xususiyatlarini rivojlanishida muhim ro'l o'ynaydigan taqlid holati hisoblanadi. Ma'lumki inson tug'ilgan vaqtda yaxshi yoki yomon bo'lib dunyoga kelmaydi. Mashhur psixolog D.Lokk yangi tug'ilgan chaqaloqni, toza taxtaga o'xshatganligi ham bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Inson xarakterining taraqqiyotida muhitning ro'li go'daklik chog'idan boshlab ahamiyatli hisoblanadi. Chunki go'daklik davrining so'ngida bolalar kattalarga taqlid qila boshlaydilar.

Maqsadli harakat va taqlid intensiv rivojlanayotgan intellektdan (aqliy faoliyatdan) dalolat beradi. Bola harakat jarayonida o'zining va boshqalarning harakatlariga taqlid qiladi.

Bolalar ota-onasiga, yaqin kishilariga, o'xshashga moyil bo'ladilar. Ular kattalarning yurish turishiga, gap so'zlariga, bolalar bilan muloqotiga, ovoz ohangiga, imo-ishoralariga, taqlid qilishga urunadilar. Shuning uchun ham ijtimoiy muhitning ta'siri ostida boladagi ayrim xarakter xislatlari juda yoshlikdan boshlab, go'yo o'z-o'zicha hosil bo'lgan xususiyat tariqasida mustahkamlana boshlaydi. Kattalarga taqlid qilish xususiyati bolalarning o'sib borish davrida ham saqlanadi.

Umuman olganda taqlid barcha yoshga tegishli xususiyat hisoblanadi. Lekin o'smirlik va o'spirinlik davrida bu xususiyat kuchliroq bo'ladi. Fransuz psixologi E.Dyurkgeym o'sish kishilarning his tuyg'usini o'zlashtirish ekanini shu tufayli, idrok qilingan tashqi fikrlar emotsiyalar bolaning ruhiy faoliyatini ifodalashini, bola tajriba an'ana urf-odatlarini taqlid orqali egallashini, biologiyada irsiyat qanchalik ahamiyatli bo'lsa taqlid ham jamiyatda shunday o'rin tutishini uqtiradi.

Fransuz satsiologlaridan biri bo'lgan Gabriyel Tard esa har bir individda ijtimoiy fakt borligini, bu narsa uning miya miya doirasidagina emas, balki bir qancha miyalar aloqasi tufayli mavjuddir, deb hisoblaydi. Ijtimoiy xulq-atvor modeli, uning fikricha, doimo individlararo munosabatni o'z ichiga olib bunda bir individ boshqa individga doimo taqlid qiladi, shuning ham shaxsni o'rganish boshqa shaxslarni inkor qilmasligini talab qiladi deb hisoblaydi.

Taqlid qilish jarayonida ko'rish va eshitish analizatorlari, diqqat, xotira, idrok, xayol kabi bilish jarayonlari ishtirok etadi. Insonlarda taqlid jarayoni yuzaga kelishi turlicha. Misol uchun biror voqea hodisani kuzatib turibsiz. Bu voqea kinofilmda yoki real hayotda kuzatilayotgan jarayon bo'lsin. Voqeadagi siz uchun qiziqarli, yoki ahamiyatli holat albatta xotirangizga muhrlanadi. Qachonki siz o'sha kuzatgan hodisadagi vaziyatga tushib qolsangiz xotirangizdagi vaziyat yuzasidan ma'lumotlarni esga olasiz va o'sha kuzatilgan voqeadagi siz uchun ma'qul deb topilgan hatti-harakatlarni beixtiyor takrorlaysiz. Agar inson bir necha marta bila turib ijtimoiy xulqqa zid xarakter qilsa va bu bir necha marta qaytarilsa u bu holatga o'rganib qoladi va bu ustanovkaga aylanib qolishi mumkin.

Insonlarni yoshiga qarab taqlid obekti turli xil bo'lishi mumkin. Kichik maktab yoshidagi bolalar o'qituvchilariga yaqin kishilariga taqlid qilsa, o'smirlar va o'spirinlar televidenyadagi shoubiznes vakillariga, qo'shiqchilarga, aktyorlarga va taniqli kishilarga taqlid qiladilar. Ammo bu taqlid jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini hisobga olmaydilar.

Telekanallarda namoyish etilayotgan filmlarda g'arb madaniyati aks etgan lavhalarni ko'plab uchratish mumkin. Aytaylik ota-onasini fikrini mensimasligi, oila a'zolariga bo'lgan qo'pol munosabat, ichkilikbozlik, va zararli odatlarni namoyish qilish kabi sahnalar shular jumlasidandir. Ayrim telekanallarda yoki internet tarmoqlaridagi kinofilmlarning jangari sahnalari insonlarni bir-biriga jarohat yetkazishi, bir-birini o'ldirishi kabi lavhalar o'smirlarni ruhiyatida buzulishlarni keltirib chiqaradi. Psixologlarning fikricha kinofilmlarda bir-birini o'ldirish sahnalarini ko'rgan o'smirlar ruhiyatidagi buzulishlar 3 kungacha davom etishi aniqlangan.

Yaponyalik yozuvchi Edogavo Ramponing "Oy sehri" nomli hikoyasida ham taqlidga o'zgacha ta'rif berilgan. Hikoyada yozilishicha bir Yaponyalik sayyoh o'rmonda yolg'iz ketayotgan vaqtida uning qarshisida gorilla maymuni chiqib qoladi. Sayyoh qilich bilan himoyalanoqchi bo'ladi, lekin gorilla sayyohning qilichini tortib oladi. Sayyoh qilichini qaytarib olish uchun rosa urinadi lekin barcha harakati samarasiz ketadi. Sayyoh qanday xatti-harakat qilsa maymun o'sha harakatlarni xuddi sayyohni mashara qilgandek takrorlayveribdi.

Oxiri sayyohning miyasiga bir fikr kelibdi. U bir tayoqchani qo'liga olibdida bo'yniga tekizib xuddi kesayotgandek qilib ko'rsatibdi. Buni ko'rgan maymun ham sayyohning harakatlariga taqlid qilibdi, qilichni bo'yniga olib boribdida kesibdi, natijada o'zini-o'zi o'ldiribdi. Ushbu hikoya mazmuniga ko'ra taqlid qilish natijasida inson ham o'z joniga zarar yetkazishi mumkin.

Hozirgi kunda o'smirlar va o'spirinlar orasida ko'plab kuzatilayotgan zararli odatlardan biri bu tamaki mahsulotlarining iste'molidir. Ma'lumotlarga ko'ra har yili global tamaki epidemiyasi deyarli 7 million inson umriga zomin bo'lmoqda, eng achinarlisi, ulardan 900 mingdan ortig'i chekmaydi, lekin tamaki tutuni ostida zaharlanadiganlardir. Tadqiqot natijasiga ko'ra dunyo bo'yicha tamaki mahsulotlariga ruju qo'ygan yoshlarning aksariyati ota-onasidan o'rnak olib kashandaga aylanayotganini ko'rsatmoqda.

Bir kunda yer yuzidagi o'rtacha yuz ming nafar o'smir kattalarga ota-onasi, qo'ni-qo'shnisi yoki yaqinlariga taqlid oqibatida shu illat domiga tushmoqda. Ayni vaqtda 13-15-yoshli har besh nafar o'smirning biri chekadi.

Ushbu holatlar yuzaga kelmasligi uchun ota-onalar o'smirlik o'spirinlik yoshidagi farzandlariga ko'proq e'tibor qaratishlarini ular bilan ko'proq muloqotda bo'lishlari farzandlarining bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishlari farzandlariga mentalitetimizga to'g'ri kelmaydigan kinofilmlarni ko'rishlariga to'sqinlik qilishlari zarur.

Bolalarni dunyoqarashini kengaytirish ma'naviy boyligini oshirish, bolada irodaviy xislatlarni rivojlantirish sport mashg'ulotlariga berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Negaki dunyoqarashi keng irodali o'zining shaxsiy fikriga ega insonlar taqlidchanlikka berilishi qiyin kechadi.

Adabiyotlar:

1. P.I.Ivanov M.E.Zufarova "Umumiy psixologiya" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti 2008-yil 378-379-bet.
2. D.Oriboyeva "Shaxs psixologiyasi" ma'ruzalar matni Namangan 2019
3. Y.Jumanazarov "Rivojlanish psixologiyasi" ma'ruzalar matni Namangan 2018 y 20-38-bet.
4. D.Avvalboyeva to'plami "Dunyo adabiyoti durdonalari" 19-bet Toshkent 2017